

## MONOPOLIYANI TARTIBGA SOLISH VA ADOLATLI RAQOBATNI TA'MINLASH

### REGULATION OF MONOPOLY AND ENSURING FAIR COMPETITION

### РЕГУЛИРОВАНИЕ МОНОПОЛИИ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЧЕСТНОЙ КОНКУРЕНЦИИ

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Turtkul fakultiteti Bank ishi*

*241- guruh talabasi*

**Atabekov Javohirbek Umrbek o'g'li**

*akoojony@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezisdagi bozor iqtisodiyoti sharoitida monopoliyani tartibga solish mexanizmlari va uning salbiy oqibatlari, raqobat muhitini shakllantirishning ahamiyati hamda adolatli raqobatning iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish samaradorlikka ta'siri tahlil qilindi. O'zbekiston tajribasi va hududdagi monopol holat o'rganildi va muammolar va ularga yechimlar ko'rsatilib o'tildi.*

**Annotation:** *This thesis analyzes the mechanisms of regulating monopoly in a market economy, its negative consequences, the importance of creating a competitive environment, and the impact of fair competition on the efficient use of economic resources. The experience of Uzbekistan and existing monopolistic situations in the region were studied, and the problems along with their solutions were identified.*

**Аннотация:** *В данном тезисе проанализированы механизмы регулирования монополии в условиях рыночной экономики, её отрицательные последствия, значение формирования конкурентной среды, а также влияние честной конкуренции на эффективное использование экономических ресурсов. Изучен опыт Узбекистана и существующие монополистические ситуации в регионе, выявлены проблемы и предложены их решения*

**Kalit so'zlar:** *Monopoliya, raqobat, narx, bozor iqtisodiyoti, tartibga solish, antimonopoliya siyosati, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik, iste'molchi manfaatlari.*

**Keywords:** *Monopoly, competition, price, market economy, regulation, antimonopoly policy, innovation, economic efficiency, consumer interests.*

**Ключевые слова:** *Монополия, конкуренция, цена, рыночная экономика, регулирование, антимонопольная политика, инновация, экономическая эффективность, интересы потребителей.*

### KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitini shakllantirish va uning adolatli tarzda amalga oshirishini ta'minlash iqtisodiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan

biridir. Monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlari iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, iste'molchilar manfaatini himoya qilish hamda tadbirkorlik subyektlarining teng raqobat imkoniyatlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Monopoliya – bu bozorda mahsulotning yagona ishlab chiqaruvchisi yoki xizmat ko'rsatuvchisi mavjud bo'lgan holat bo'lib, u narxni belgilash, ishlab chiqarish miqdorini nazorat qilish va bozor infratuzilmasiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. Monopoliyaning shakllanishi iqtisodiy, texnologik va institutsional omillar bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha bozor to'siqlari, tabiiy monopoliyalar, patentlar tizimi, intellektual mulk himoyasi va davlat siyosatining alohida qarorlari orqali yuzaga keladi.

Monopoliya bozor tizimining tabiiy natijasi sifatida ham paydo bo'lishi mumkin, chunki ayrim tarmoqlarda texnologik samaradorlik raqobatchilar sonining ko'payishini emas, balki yagonalashuvni talab qiladi. Masalan, energetika, transport infratuzilmasi, gaz ta'minoti kabi sohalar tabiiy monopol turlariga kiradi. Bunday tarmoqlarda raqobat muhitini sun'iy shakllantirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lishi mumkin. Monopoliya va uning iqtisodiy tabiatini tushunish.

Monopoliyaning salbiy oqibatlari: narxlarning oshishi; mahsulot sifatining pasayishi; innovatsiyalar sustlashuvi; resurslardan samarasiz foydalanish.

Monopoliyani tartibga solish mexanizmlari. Qonunchilik choralari: monopol faoliyatni cheklovchi qonunlar; narx diskriminatsiyasini taqiqlash; bozorda hukmron mavqeyini suiiste'mol qilishni jazolash.

Institutsional mexanizmlar: antimonopoliya qo'mitalari; bozor monitoring tizimlari; litsenziyalash va sertifikatlash jarayonlari.

Iqtisodiy chora-tadbirlar: narxlarni tartibga solish; subsidiyalar yoki soliqqa tortish mexanizmlari; bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

Adolatli raqobat quyidagi natijalarga olib keladi: narxlarning pasayishi; mahsulot sifatining oshishi; innovatsion faoliyatni rag'batlantirish; samarali ishlab chiqarish. Adolatli raqobat – bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyili bo'lib, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida teng sharoit yaratish, to'sqinliksiz kirish va chiqish imkoniyatlarini ta'minlash bilan izohlanadi. Narxlarning pasayishi – bozor bosimi ishlab chiqaruvchilarni tannarxni kamaytirishga majbur qiladi; Mahsulot sifatining oshishi – iste'molchi tanlov imkoniyatining kengayishi ishlab chiqaruvchilarni sifatga e'tibor qaratishga majbur qiladi; Innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish – bozor raqobati ilmiy-texnik yangiliklar uchun turtki beradi; Ishlab chiqarish samaradorligining oshishi – resurslardan oqilona foydalanish raqobat sharoitida muhim omil bo'ladi. Natijada, raqobat muhitining shakllanishi iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi va jamiyatning umumiy farovonligi oshadi.

Monopoliya sharoitida O'zbekiston tajribasini biz uchun o'rni katta.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida raqobatni himoya qilish bo'yicha muhim qonunchilik bazasi yaratildi. "Raqobat to'g'risida"gi Qonun, Anti-monopoliya

qo'mitasi faoliyati, tender tizimlarining joriy qilinishi bozor munosabatlarining ochiqqligini oshirdi.

Monopoliya sharoitida yuzaga keladigan muammolar va yechimlarni ko'rib o'tsak.O'zbekistonda: tabiiy monopoliyalar hukmronligi; narxlarning noto'g'ri shakllanishi; korrupsiya xavfi kabi muammolar mavjud.

Yechimlar: raqobat muhitini kengaytirish; davlat boshqaruvini optimallashtirish; sud-huquq tizimini mustahkamlash; raqamli monitoring tizimlarini joriy qilish ushbu usullar orqali muammolarga yechim topa olsak bo'ladi.

### **XULOSA**

Mamlakat iqtisodiyotida adolatli raqobat muhitini shakllantirish va monopoliyani tartibga solish nafaqat bozor tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi, balki ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Monopoliya hukmronligi mavjud bo'lgan bozorlarda narxlarning sun'iy oshirilishi, mahsulot sifati va turli assortimentning cheklanishi, innovatsion jarayonlarning sustlashuvi kabi salbiy oqibatlar kuzatiladi. Shu sababli davlat tomonidan olib boriladigan antimonopoliya siyosati iqtisodiy barqarorlikning kafolati sifatida maydonga chiqadi.

Raqobatni tartibga solishning samaradorligi, birinchi navbatda, kuchli huquqiy baza, professional institutsional tizim va shaffof boshqaruv mexanizmlariga bog'liq. O'zbekiston misolida so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda sezilarli islohotlar olib borilgani, raqobat muhitini kengaytirish, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida tenglikni ta'minlash hamda narxlarni shakllantirishda ochiqlikni kuchaytirishga e'tibor qaratilgani kuzatiladi. Ammo ayrim tarmoqlarda tabiiy monopoliyalar mavjudligi, davlat ishtirokining yuqoriligi va bozor infratuzilmasining to'liq shakllanmaganligi kabi muammolar hali ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni.
2. Porter, M. Competitive Strategy.
3. Tirole, J. The Theory of Industrial Organization.
4. Carlton D., Perloff J. Modern Industrial Organization.
5. OECD. Competition Policy and Market Regulation.
6. Lex.uz rasmiy sayti